



2019 yil yanvar-aprel oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-aprel oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 4323,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 112,0 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash- 9,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 12,7 % ga o'sishi hisoblandi.

Yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




109,3 %



112,0 %

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



75,5 %

Ishlab chiqaradigan sanoat



112,7 %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



79,2 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4135,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,7 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,6 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali - 28,2 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali - 8,0 % ni va quyi texnologiyali - 58,9 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 144,5 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish


Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,5 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2297,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,2 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 53,1 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,9 % dan 2019-yil yanvar-aprel oyida 61,7 % ga pasayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 1,6 % ni (2018-yil yanvar-aprel oylarida 2,0 %) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1939,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajimdagi ulushi, %.

2018-yil yanvar-aprel

2019-yil yanvar-aprel




- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 44,7 %), Jomboy (18,2 %), Samarqand (6,9 %), Urgut (6,3 %), Bulung'ur (4,3 %) va Tayloq (3,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




2019-yilning yanvar-aprel oylarida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2004,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 46,4 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qo'shrabot (100,0 %), Samarqand (99,6 %), Urgut (95,7 %), Bulung'ur (94,3 %), Oqdaryo (89,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (25,9 %), Narpay (18,3 %), Jomboy (13,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)
Qayta ishlash sanoati

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar-aprel</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 ming tonna	6,43	89,4 ↓
Aroq	 ming l. 100% spirt	44,8	7,8 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 ming l. 100% spirt	56,7	44,6 ↓
Uzum vinosi	 ming l.	289,4	59,5 ↓
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 ming l.	4951,0	70,5 ↓
Yumshoq bug'doy va spelta uni	 ming tn.	50,4	98,9 ↓

Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g.		<i>tn.</i>	233,0	95,5 ↓
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)		<i>tn.</i>	4445,0	90,3 ↓
Paxta tolasi		<i>ming tn.</i>	18,0	51,3 ↓
Paxta chigiti		<i>ming tn.</i> <i>ming tn.</i>	28,9	60,4 ↓
Paxta tiviti (lint)		<i>tn.</i>	1571,0	63,1 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi		<i>mln.kVt/s</i>	21,6	189,5 ↑
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)		<i>ming Gkal.</i>	26,8	97,5 ↓

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5374 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1449 tasi (mavjud korxonalar umumiy soning 27,0 %) Samarqand shahriga, 769 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 507 tasi (9,4 %)-Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil 1 may holatiga)



2019-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda 924 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning asosiy qismi Samarqand shahri (19,6 foiz), Urgut (10,2), Samarqand (9,6 foiz), Pastdarg'om (8,8 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019-yil 1 may holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi

E.A.Qo'qonov

Tel: (66) 235-06-80